



MAKTABGACHA TA'LIM SOHASIDAGI ILG'OR TAJRIBALARNING PEDAGOGIK TAVSIFI

Baydjanov Bekzod Xaitboyevich

FarDU, Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Turopova Gavxaroy Jamoldin qizi

FarDU magistranti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.8009754>

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 25-May 2023 yil

Ma'qullandi: 28-May 2023 yil

Nashr qilindi: 06-June 2023 yil

KEY WORDS

ilg'or tajribalar, pedagogik tavsif, ta'lim, yondashuvlar, texnologiya integratsiya, inklyuzivlik, hamkorlik.

ABSTRACT

Ilg'or tajribalarni amalga oshirish orqali maktabgacha ta'lim dasturlari bolalarning butun umri davomida ta'lim olishi va muvaffaqiyati uchun mustahkam poydevor qo'yadigan qiziqarli va rivojlanishga mos o'quv muhitini yaratishi mumkin. Ushbu maqola maktabgacha ta'lim sohasidagi ilg'or tajribalarni har tomonlama o'rganish va pedagogik tavsifni berishga qaratilgan. Pedagogik tamoyillarga amal qilgan holda texnologiya integratsiyasi o'quv tajribalarini oshiradi.

Maktabgacha ta'lim bolaning ta'lim va rivojlanishining asoslarini shakllantirishda hal qiluvchi rol o'ynaydi. Bolalar ta'limiga e'tibor kuchayib borayotganligi sababli maktabgacha ta'lim muassasalarida ilg'or tajribalarni aniqlash va joriy etishga bo'lgan ehtiyoj ortib bormoqda. Maktabgacha ta'lim sohasidagi ilg'or tajribalarning pedagogik tavsifi o'quv dasturlarini loyihalash, o'qitish strategiyalari, baholash usullari, sinf muhiti va o'qituvchi va bola o'zaro munosabatlarini o'z ichiga olgan keng doiradagi sohalarni qamrab oladi. Ushbu amaliyotlar bolalarning kognitiv, ijtimoiy, hissiy va jismoniy rivojlanishi uchun ijobiy natijalarni ko'rsatgan dalillarga asoslangan yondashuvlarga asoslangan.

Kasbiy mahoratni oshirish yo'lida amaliy harakatlarni tashkil etish pedagogik faoliyatda yo'l qo'yilgan yoki qo'yilayotgan xatolardan holi bo'lish, tarbiyalanuvchilar, hamkasblar hamda ota-onalar bilan munosabatda muvaffaqiyatlarga erishish imkoniyatini yaratadi.

O'z davrlarida Abu Nasr Forobiy, Yusuf Xos Hojib, Sa'diy Sheroziy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Alisher Navoiy, Husayn voiz Koshifiy, Abdulla Avloniy va boshqalar tarbiyachilik, tarbiyachilik kasbi, uning mashaqqatlari, shuningdek, tarbiyachi shaxsida aks etishi zarur bo'lgan sifatlar xususida qimmatli ma'lumotlarni o'z asarlarida qizg'in bayon qilganlar. Binobarin, pedagogik jarayonning mohiyatini anglamagan, bolaga nisbatan chuqur hurmatda bo'lmagan tarbiyachi ta'lim-tarbiya samaradorligi va inson kamolotini ta'minlovchi fikrga ham ega bo'lolmaydi. Yuksak pedagogik mahoratga ega bo'lgan tarbiyachi bolani tushuna olishi, unga nisbatan insonparvar munosabatda bo'lishi, har qanday pedagogik vaziyatni to'g'ri baholashi, yuzaga kelishi ehtimoli bo'lgan ziddiyatlarni o'z vaqtida bartaraf etishi, pedagogik faoliyatda hamisha ilg'orligi, jamiyat taraqqiyoti hamda pedagogik jarayonda tarbiyalanuvchilar ongiga singdirilayotgan ezgu g'oyalarni hayot bilan boglay olishi lozim.

Ilg'or tajribaga ega tarbiyachi tarbiyalanuvchilarda o'qishga bo'lgan qiziqishlarni shakllantirish va doimo rivojlantirib borish uchun quyidagilarga amal qilishi muhimdir:

1. Tarbiyalanuvchilarni bilishga intilishini, umuman olganda aqliy mehnatga qiziqishlarini rivojlantirish o'quv jarayonini shunday tashkil etilishini ta'minlaydiki, unda tarbiyalanuvchi faol harakat qiladi, mustaqil izlanish va yangi omillarni "kashf etish"ga, muammoli vaziyatlarni hal etishga intiladi.

2. O'quv mashg'ulotlari boshqa faoliyatlar kabi faqat turlicha bo'lgandagina, qiziqarli bo'ladi. Bir xil usulda axborot byerish va bir xil usuldagi harakatlar tyez orada zyerikishni vujudga kyeltiradi.

3. Yangi bilimlar oldingi material bilan qanchalik ko'proq bog'lab tushuntirilsa, u tarbiyalanuvchilarga shunchalik qiziqarliroq tuyuladi. Muayyan mavzulardagi tushunchalarni bolalarni qiziqtiradigan narsalar bilan bog'lab tushuntirish ham, ularni mashg'ulotga qiziqtirishda muhim rol o'ynaydi.

5. O'rtacha qiyinlikdagi o'quv matyeriali ham bolalarga qiziqish uyg'otmaydi. O'quv matyeriali bir oz qiyinroq, lyekin tarbiyalanuvchilar kuchi yetadigan bo'lishi kyerak.

6. Tarbiyalanuvchilar bajargan ishlarni tez-tez tekshirish ham ularni bilim olishga bo'lgan qiziqishini uyg'otadi.

7. Mashg'ulotda qo'llaniladigan materialning aniqligi, hissiyotga boyligi, tarbiyachining zavqlanib gapirishi ham bolaga, uni bilim olishga bo'lgan qiziqishini ortishiga juda katta ta'sir ko'rsatadi.

Ilg'or tajribaga ega tarbiyachilar o'qitish metodlarini tanlashga alohida e'tibor beradilar. Tarbiyalanuvchilarning yakka, guruhiy tarkibdagi faoliyatlarining umumiy jihatlari ko'proq bo'lsada, ularni tashkil etish tarbiyachidan o'ziga xos ijodiy yondashishni talab qiladi. Tarbiyachilik faoliyati ob'yektining tarkibi va o'ziga xosligi uning har bir aniq vaziyatga ijodiy yondashishini taqozo qiladi. Agar butun guruh va alohida shaxsga nisbatan bir xil myetod bilan ta'sir ko'rsatilar ekan, unda tarbiyasi ham, ijodiy yondashish ham barbod bo'ladi.

Ayrim hollarda o'qishga qiziqtiruvchi metodlardan, boshqa hollarda esa burch va javobgarlikni his etishni rag'batlantiruvchi metodlarga ko'proq e'tibor berish tavsiya etiladi. Tajribali tarbiyachilar o'tilayotgan mavzuni ahamiyatiga oid qiziqarli misollar keltiradilar, didaktik o'yinlardan, bolalar faolligini rag'batlantiruvchi turli usullardan foydalanadilar. Lekin bolalar faoliyatida hamma narsani ravshan va qiziqarli holda tasavvur etish qiyin. Shuning uchun ham tarbiyachi tarbiyalanuvchilarda paydo bo'ladigan qiyinchiliklarni yengish uchun o'ziga iroda va qat'iylikni ham tarkib topshirishi zarur. Bundan ko'rinadiki, tarbiyachi avvalo zamonaviy bilim bilan qurollangan bo'lishi lozim.

Shuning uchun hozirgi kun tarbiyachisi:

- pedagogik faoliyatga qobiliyatli, ijodkor, ishbilarmon;
- milliy madaniyat va umuminsoniy qadriyatlarni, dunyoviy bilimlarni mukammal egallagan, diniy ilmlardan ham xabardor, ma'naviy barkamol;
- O'zbekistonning mustaqil davlat sifatida taraqqiy etishiga ishonadigan, vatanparvarlik burchini to'g'ri anglagan, e'tiqodli fuqaro;
- maktabgacha ta'lim sohasiga doir bilimlarni, psixologik, pedagogik bilim va mahoratni, shuningdek nazariy ilmlarni mukammal egallagan;
- tarbiyachilik kasbini va bolalarni yaxshi ko'radigan, har bir tarbiyalanuvchi

ulg'ayib, yaxshi odam bo'lishiga chin ko'ngildan ishonadigan, ularning shaxs sifatida rivojlanib, inson sifatida kamol topishiga ko'maklashadigan;

– erkin va ijodiy fikrlay oladigan, talabchan, adolatli, odobli bo'lmog'i darkor.

Davlatimiz maktabgacha ta'lim sohasida o'rtaga qo'yayogan vazifalarni bajarish ko'p jihatdan tarbiyachiga bog'liq. Hozirgi kunda ta'lim-tarbiyadan ko'zda tutilayotgan maqsadlarga erishish, bolalarning xilma-xil faoliyatini uyushtirish, ularni bilimli, odobli, e'tiqodli, myehnatsevar, erkin fikrli, ongli barkamol inson qilib o'stirish tarbiyachi zimmasiga yuklatilgan.

Ta'lim-tarbiyada har bir joyning, millatning yashash tarzi va xususiyatini hisobga olish qonuniyati yuksak pedagogik mahorat va madaniyatni, topqirlikni talab etadi. Fan va texnikaning, madaniyatning, jamiyatning tuzilishini, fan va texnikaning uzluksiz rivojlanishini hisobga olib, ta'lim va tarbiya mazmunini doimo takomillashtirib turish kyerak bo'ladi. Ta'lim va tarbiya mazmunini takomillashtirish esa tarbiyachining ilmiy-metodik tayyorgarligi, ijodkorligi va topqiriligiga bog'liq.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Mirziyoev SH.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. –T.: O'zbekiston, 2017.
2. Atabayeva N.B., SHaxsga yo'naltirilgan ta'limning bolada altruizmni shakllanishiga ta'siri. "Zamonaviy uzluksiz ta'lim muammolari: innovatsiya va istiqbollari" mavzusidagi xalqaro ilmiy konferensiya. –Toshkent, TDPU. 2018 yil 27 aprel. 130-bet.
3. Boboyorova G. Bolalarni maktabga tayyorlashda intyerfaol usullardan foydalanish. Maktabgacha ta'lim j., 2007. 6-son. -14 b.
4. Bolalar entsiklopyediyasi. 2-nashr. –T.: "O'zbyekiston milliy entsiklopyediyasi". Davlat ilmiy nashriyoti. 2002. -664 b.
5. Boymatova A.G., Djumabayeva M.B., Aliyeva K.S. "Maktabgacha yoshdagi bolalarning psixologik xususiyatlari" moduli bo'yicha O'quv-uslubiy majmua. –T.: TDPU, 2018.
6. Volkov, B. S. Psixologiya detstva: uchebno-metod. posobiye / B. S.Volkov, N. V. Volkova. - M. : APO, 1997. - 152 s.
7. Do'stmuhamedova SH.A., Nishonova Z.T. va boshqalar. YOsh davrlari va pedagogik psixologiya. -T.: Fan va texnologiyalar, 2013.
8. Jo'rayeva B.D. Maktabgacha ta'limni modyernizatsiyalash muammolari va rivojlantirish istiqbollari. Xalq ta'limi j., 2008. 5-son. -114-119 b.